



ISSN 2091-5187

# СЕРВИС

№4

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ  
ЖУРНАЛ

2025



# СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2025 йил, 4-сони

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда  
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎзР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий  
жамоаси:**

**Бош муҳаррир:**

и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

**Бош муҳаррир**

**ўринбосари:**

и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

**Масъул котиб:**

и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

**Муҳаррирлар:**

и.ф.д., доцент Ф.А.Сафаров  
PhD, доцент И.М.Пардаева  
PhD, И.Ш.Эрназарова

**Техник муҳаррир:**

и.ф.н., проф. А.Н.Холиқулов

**Корректор:**

PhD, доц. С.А.Бабаназарова

**Саҳифаловчи:**

PhD Х.Н.Очилова

1 йилда 4 маротаба  
чоп этилади.

**Ўзбекистон худудида  
тарқатилади.**

**Тахририят манзили:**

140100, Самарқанд шаҳар,  
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,  
+998(97)913-74-40

факс: +998(366)231-12-53  
эл.почта:

samisiservis@mail.ru

**Тахририят кенгаши раиси:**

**М.Э.Пўлатов** – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис  
институти ректори, и.ф.д., профессор

**Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:**

**Д.Х.Асланова** – СамИСИ илмий ишлар ва  
инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

**Тахрир кенгаши аъзолари:**

**Б.А.Бегалов** – Ўзбекистон Республикаси Президенти  
хузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д.,  
профессор

**М.Қ.Пардаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.К.Ғоибназаров** – и.ф.д., профессор.

**М.М.Мухаммедов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Д.Р.Зайналов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**О.М.Муртазаев** – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

**М.Р.Болтабаев** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Р.Х.Эргашев** – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

**И.С.Тўхлиев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**К.Б.Уразов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Қ.Ж.Мирзаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.И.Исроилов** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Г.М.Шодиева** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.Абдукаримов** – СамИСИ профессори, и.ф.н.

**Р.Қобилов** – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

**С.Н.Тошназаров** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Р.Н.Нормахматов** – СамИСИ профессори, т.ф.д.

**А.Бектемиров** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**О.М.Пардаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**М.Т.Алимова** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**З.Дж. Адилова** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Ш.О.Қувондиқов** – СамИСИ профессори в.б., иқтисод  
фанлари доктори

**Л.Н.Халикова** – СамИСИ профессори, DSc

**Ф.А.Сафаров** – СамИСИ доценти, DSc

**А.М.Каримова** – СамИСИ профессори в.б., DSc

**И.Б.Маттиев** – СамИСИ профессори, DSc

<b>Sanjar Baxronkulovich Boboqulov</b> Samarqand viloyatida uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatishni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmini takomillashtirish	75
<b>Фарангис Азамовна Ишанкулова</b> Олий таълим хизматлари рақобатбардошлигига таъсир этувчи омилларнинг иқтисодий-математик модели	81
<b>Севара Абдиназаровна Бабаназарова</b> Таълим хизматлари тушунчаси ва уларнинг инсон ресурсларини шакллантиришдаги роли ва аҳамияти	87
<b>Shohina Xujmaxmatovna Pirova</b> Mamlakatimiz iqtisodiyotida ichimlik suvi ta‘minoti xizmatlarining tutgan o‘rni va ahamiyati	91
<b>Ибодулла Хасанович Ибрагимов, Лариса Алижоновна Мусабоева</b> Цифровой реинжиниринг бизнес-процессов в сервисных компаниях Узбекистана	95
<b>Nilufar Abdaxatovna Abdukadirova</b> Ovqatlanish xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalar faoliyatini baholash tizimi va innovatsion samaradorlikni oshirish imkoniyatlari	99
<b>ТУРИЗМ ВА МЕҲМОНХОНА ХЎЖАЛИГИ</b>	
<b>Елена Вячеславовна Гольшева</b> Индикаторы устойчивого туризма как инструмент регионального развития (на примере Ферганской области)	102
<b>To‘lqin Saidahmedovich Sharipov, Muxabbat Ismatjon qizi Umirzoqova</b> Turizm xizmatlari sohasini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati	110
<b>Azizjon Shukrilloevich Berdimurodov</b> Hududlarda turizm sohasini barqaror rivojlantirish mexanizmining tashkiliy va metodologik asoslari	114
<b>Shuxratjon Sultonovich Sayfutdinov</b> Turizmni barqaror rivojlantirishda blokcheyn texnologiyalarining innovatsion imkoniyatlari	118
<b>Dostonbek Furqat o‘g‘li Tilovmurodov</b> Surxondaryo viloyatida sarguzasht turizmi va speleoturizm faoliyatini tashkil etish imkoniyatlari	122
<b>Shohro‘ Baxtiyorovna Navruz-zoda</b> Yoshlar turizmini rivojlantirishning konseptual asoslari	128
<b>Farida Abduxalimovna Axmedjanova, Bekjon Nizom o‘g‘li Ismatillayev</b> Turizm va mehmondo‘stlik sohasida xalqaro standartlarni milliy tizimga uyg‘unlashtirish masalalari	136
<b>Йылмаз Улви Узун</b> Влияние колебаний цен на нефть, глобальных торговых войн и прямых иностранных инвестиций на экономический рост страны	139
<b>Askar Axrorovich Siddiqov</b> Mehmonxona korxonalarini boshqarish shakli va asosiy yondashuvlar	147
<b>Diyora Farhod kizi Bahriddinova</b> Innovative directions for the development of youth-oriented tourism and economic mathematical models for assessing the service potential of tourism enterprises	150
<b>КИЧИК БИЗНЕС ВА ОИЛАВИЙ ТАДБИРКОРЛИК</b>	
<b>Шохида Ильясовна Артикова, Дониёр Искандарович Насимов</b> Поддержка и развитие малого бизнеса в сфере услуг в Республике Узбекистан: институциональные механизмы, динамика и перспективы	156

10. Zhanibekova, F. va boshq. Developing Youth Tourism Along the Great Silk Road: A Conceptual Perspective. – 2025.

<p><b>Ш.Наврўз-зода</b></p> <p><b>Концептуальные основы развития молодежного туризма</b></p> <p><b>Аннотация.</b> В статье анализируются концептуальные основы развития молодежного туризма, уделяя особое внимание теоретико-методологическим, социально-экономическим, организационно-правовым, культурно-духовным и информационно-коммуникационным аспектам. Основная цель исследования — разработка научно-концептуальной базы молодежного туризма посредством интеграции концепций «Туризм — Молодежный туризм — Молодежь». Согласно полученным данным, укрепление взаимосвязи между государственной политикой, инструментами цифровой коммуникации, инновационными маркетинговыми стратегиями и системой образования имеет решающее значение для устойчивого развития молодежного туризма. В заключение статьи предлагается концептуальная модель и интегративный подход для обеспечения долгосрочного и инклюзивного роста молодежного туризма.</p> <p><b>Ключевые слова:</b> молодежный туризм, концепция туризма, интеграция, устойчивое развитие, культурное наследие, инновационный подход, цифровая коммуникация.</p>	<p><b>Sh.Navruz-zoda</b></p> <p><b>Conceptual foundations of youth tourism development</b></p> <p><b>Abstract.</b> This article analyzes the conceptual foundations for the development of youth tourism, focusing on its theoretical-methodological, socio-economic, organizational-legal, cultural-spiritual, and information-communicational dimensions. The main purpose of the study is to develop a scientific and conceptual framework for youth tourism through the integration of the concepts “Tourism – Youth Tourism – Youth.” According to the findings, strengthening the interrelation between state policy, digital communication tools, innovative marketing strategies, and the education system is crucial for sustainable youth tourism development. The article concludes by proposing a conceptual model and integrative approach to ensure the long-term and inclusive growth of youth tourism.</p> <p><b>Keywords:</b> youth tourism, tourism concept, integration, sustainable development, cultural heritage, innovative approach, digital communication.</p>
---	---

**Farida Abduxalimovna Axmedjanova** – t.f.n., dotsent, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti  
**Bekjon Nizom o‘g‘li Ismatillayev** – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi

### TURIZM VA MEHMONDO‘STLIK SOHASIDA XALQARO STANDARTLARNI MILLIY TIZIMGA UYG‘UNLASHTIRISH MASALALARI

<p><b>Annotatsiya.</b> Maqolada O‘zbekistonda turizm va mehmondo‘stlik sohasida xalqaro standartlarni milliy tizim bilan uyg‘unlashtirish jarayoni tahlil qilinadi. Xizmat sifatini oshirishdagi ularning roli, normativ-huquqiy moslashuv zaruriyati, xodimlar malakasi, kichik biznes xarajatlar va raqamli infratuzilma sustligi muammolari ko‘rib chiqilib, amaliy takliflar ilgari surilgan.</p> <p><b>Kalit so‘zlar:</b> turizm, mehmondo‘stlik, xalqaro standartlar, milliy tizim, sifat menejmenti, sertifikatlash, raqamli infratuzilma, xizmat sifati.</p>
--

**Kirish.** Bugungi kunda turizm va mehmondo‘stlik sohasida xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish, iste‘molchilar ishonchini mustahkamlash va xalqaro raqobatbardoshlikni ta‘minlashda xalqaro standartlarning milliy tizim bilan uyg‘unlashuvi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, turizm sohasida ISO 9001, ISO 22000, HACCP, ISO 18513 kabi standartlar xizmat ko‘rsatish jarayonlarini me‘yorlashtirish, sifatni nazorat qilish va barqaror rivojlanishni qo‘llab-quvvatlashda muhim vosita hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasida ham ushbu yo‘nalishda xalqaro me‘yorlarni milliy tizimga tatbiq etish, ularni o‘ziga xos iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlarga moslashtirish bo‘yicha bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** O‘zbekistonda turizm standartlarini takomillashtirish zarurligini D.Adilova “Development and Improvement of the National Tourism Standards of the Republic of Uzbekistan” nomli tadqiqotida asoslab bergan. Muallif xalqaro standartlar bilan milliy me‘yorlarning uyg‘unlashuvini tahlil qilib, ularning o‘zaro moslashtirilish yo‘nalishlarini taklif etgan.

J.Erkaboyeva: “Standardization and Certification in Hotel Restaurants” nomli maqolasida mehmondo‘stlik sohasidagi sertifikatlash va standartlashtirish jarayonlarini o‘rganib chiqqan. Muallif xalqaro standartlar – ISO 9001, ISO 22000 va HACCP tizimlarini joriy etishning

afzalliklari hamda amaliy muammolarini yoritgan.

S.Usmanova “The Provision of Tourists’ Rights in Uzbekistan: International and National Standards” ishida turizm sohasidagi huquqiy me’yorlarni xalqaro va milliy darajada solishtirgan. Turistlar huquqlarini himoya qilish, xavfsizlik va xizmat madaniyati jihatidan xalqaro huquqiy me’yorlarning milliy qonunchilikka integratsiya jarayonlarini tahlil qilgan.

T.Raxmonov “Foreign Experiences of Improving the Quality of Services in the Field of Tourism” nomli tadqiqotida xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida turizm xizmatlari sifatini oshirish bo’yicha milliy mexanizmlarni taklif etgan.

F. Axmedjanova va B. Ismatillayevning ilmiy ishida Turizm va madaniy merosni standartlashtirish bo’yicha texnik qo’mita tomonidan xalqaro talablar bilan uyg’unlashtirilgan davlat standartlari asosida turizm xizmatlarining xavfsizligi va sifatini ta’minlash darajasi tahlil qilingan. Tadqiqotchilar turizm xizmatlari sifatini boshqarish jarayonlarini xalqaro sifat standartlari asosida tashkil etish va ularni ushbu standartlarga moslashtirishni taklif etganlar.<sup>1</sup>

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur maqolada O’zbekiston Respublikasida turizm va mehmondo’stlik sohasida xalqaro standartlar, milliy tizim, huquqiy-me’yoriy baza, amaliy choralar, mavjud muammolar va ularning yechimlari kompleks tahlil qilingan.

**Tahlil va natijalar.** Yuqoridagi tadqiqotlardan ko’rinib turibdiki, O’zbekiston turizm va mehmondo’stlik sohasida xalqaro standartlarni milliy tizim bilan uyg’unlashtirish borasida muhim qadamlar qo’ymoqda. Biroq ayrim muammolar ham mavjud: milliy normativ-huquqiy bazaning xalqaro standartlarga to’liq mos emasligi. Turizm sohasidagi milliy normativ-huquqiy baza ko’p hollarda xalqaro talablardan orqada qolmoqda. Masalan, ISO 9001 (sifat menejmenti), ISO 18513 (turizm xizmatlari), ISO 22000 (ovqat xavfsizligi) kabi xalqaro standartlarning barcha talablarini milliy me’yoriy hujjatlar to’liq qamrab olmagan. Bu esa xalqaro sertifikatlash tizimlariga kirish imkoniyatlarini cheklaydi.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun quyidagilarni taklif etamiz:

- amaldagi O’z MSt (O’zbekiston milliy standarti) hujjatlarini xalqaro ISO va WTO standartlari bilan solishtirib, ularni bosqichma-bosqich moslashtirish;
- xalqaro tajribalarni inobatga olgan milliy standartlarni yangilash konsepsiyasi ishlab chiqish.

**Xodimlarning malaka va kasbiy tayyorgarligi yetarli darajada emasligi.** Turizm va mehmondo’stlik sohasidagi xodimlar xalqaro xizmat ko’rsatish standartlarini chuqur bilmasligi sababli, amaliyotda sifatsizlik, muloqot madaniyati pastligi va xizmatlarda bir xillik kuzatil-mogta. Xalqaro mehmonxona tarmoqlari (Hilton, Hyatt, Radisson) kabi brendlar uchun malaka darajasi muhim o’rin tutadi. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun quyidagilarni taklif etamiz:

- xodimlarni xalqaro standartlarga asoslangan sertifikatlash tizimi orqali baholash va qayta tayyorlash;
- turizm kollejlari, universitetlar va amaliy o’quv markazlarida “Xalqaro standartlar va xizmat sifati” modullarini joriy etish;
- mehmondo’stlik sohasidagi rahbar xodimlar uchun qisqa muddatli trening va stajirovkalar tizimini yo’lga qo’yish.

**Kichik va o’rta biznes subyektlarida standartlashtirish xarajatlarining yuqoriligi.** Turizm sohasida faoliyat yuritayotgan kichik mehmonxonalar, xususiy restoranlar va oilaviy mehmon uylari (guest house) uchun xalqaro standartlarga mos keluvchi sertifikat olish moliyaviy jihatdan murakkab. Bu ularning xalqaro bozorga chiqish imkoniyatini cheklaydi. Standartlashtirish va sertifikatlash xarajatlarini kamaytirish uchun davlat subsidiyalari ajratish.

**Raqamli infratuzilmaning yetarlicha rivojlanmaganligi.** Raqamli texnologiyalar zamonaviy turizm tizimining ajralmas qismi hisoblanadi. Ammo O’zbekistonda ko’plab mehmonxonalar, sayyohlik agentliklari va restoranlar hali ham qo’lda yuritiladigan tizimlardan foydalanmoqda. Natijada ma’lumotlar tahlili, xizmatlarni avtomatlashtirish va mijozlar bilan ishlash jarayoni samarasiz kechadi.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun quyidagilarni taklif etamiz:

- turizm obyektlari uchun yagona raqamli boshqaruv platformasi (Tourism Management

<sup>1</sup> F.Axmedjanova, B. Ismatillayev “Turizm va mehmondo’stlik industriyasida standartlashtirish va muvofiqlikni baholash xizmatlarining takomillashtirish yo’llari”

System) yaratish;

- raqamli CRM (Customer Relationship Management) va rezervatsiya tizimlarini joriy etish;
- internet infratuzilmasini rivojlantirish va soha xodimlarini raqamli ko‘nikmalarga o‘rgatish;
- raqamli texnologiyalar asosida xizmat sifatini onlayn baholash tizimini yo‘lga qo‘yish.

**Xulosa va takliflar:** Turizm va mehmondo‘stlik sohasida xalqaro standartlarni milliy tizim bilan uyg‘unlashtirish — bu nafaqat sifatni oshirish, balki milliy turizm imidjini mustahkamlashga xizmat qiluvchi strategik jarayondir. Tadqiqotchilar olib borgan ishlar shuni ko‘rsatadiki, xalqaro me‘yorlarni joriy etish jarayonida mahalliy sharoitni hisobga olgan moslashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish muhim. Shu bilan birga, xalqaro standartlar tizimining joriy etilishi xizmat sifatini oshirish, mijozlar ishonchini mustahkamlash, ekologik barqarorlikni ta‘minlash va O‘zbekistonning xalqaro turizm bozorida raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Kelgusida bu yo‘nalishda milliy standartlar bazasini kengaytirish, xalqaro sertifikatlash tizimlari bilan hamkorlikni kuchaytirish, malaka oshirish dasturlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan yuqoridagi ma‘lumotlardan xulosa chiqargan holda quyidagi takliflarni beraman:

1. Milliy standartlarni xalqaro talablar bilan uyg‘unlashtirish va xodimlarni malaka oshirish: O‘zbekiston turizm va mehmondo‘stlik sohasida xizmat sifatini barqaror oshirish va xalqaro raqobatbardoshlikni ta‘minlash uchun milliy standartlarni (O‘z MSt) ISO va WTO talablariga bosqichma-bosqich moslashtirish zarur. Bu jarayon milliy normativ-huquqiy bazani qayta ko‘rib chiqish, xalqaro tajribalarni hisobga olgan holda standartlarni yangilash va turizm xizmatlarining sifatini barqaror nazorat qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, xodimlarning malakasini oshirish muhim hisoblanadi. Buning uchun:

2. Kichik biznes qo‘llab-quvvatlash va raqamli infratuzilmani rivojlantirish; Turizm sohasida faoliyat yuritayotgan kichik va o‘rta biznes subyektlari uchun standartlashtirish va sertifikatlash xarajatlari yuqoriligi xalqaro bozorga chiqish imkoniyatini cheklaydi. Shu bois, davlat tomonidan subsidiyalar ajratish va qo‘llab-quvvatlash markazlarini tashkil etish lozim. Bundan tashqari, zamonaviy turizm tizimining ajralmas qismi bo‘lgan raqamli infratuzilma rivojlanmaganligi xizmat sifatini pasaytiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Adilova D. Development and Improvement of the National Tourism Standards of the Republic of Uzbekistan. – Multijournals.org, 2024.
2. F. A. Axmedjanova, B.N. Ismatillayev “Turizm va mehmondo‘stlik industriyasida standartlashtirish va muvofiqlikni baholash xizmatlarining takomillashtirish yo‘llari” . “Servis” ilmiy-amaliy jurnal 2025 yil 2-soni
3. Erkaboyeva J. Standardization and Certification in Hotel Restaurants. – In-Library.uz, 2025.
4. Usmanova S. The Provision of Tourists’ Rights in Uzbekistan: International and National Standards. – IJMRA, 2021.
5. Raxmonov S.T. Foreign Experiences of Improving the Quality of Services in the Field of Tourism. – Yashil Iqtisodiyot Taraqqiyot, 2024.

<p style="text-align: center;"><b>Ф.Ахмеджанова, Б.Исматиллаев</b></p> <p style="text-align: center;"><b>Вопросы гармонизации международных стандартов в сфере туризма и гостеприимства с национальной системой</b></p> <p><b>Аннотация.</b> В статье анализируется процесс гармонизации международных стандартов в сфере туризма и гостеприимства в Узбекистане с национальной системой. Рассмотрены их роль в повышении качества услуг, необходимость нормативно-правовой адаптации, квалификация персонала, затраты малого бизнеса и проблемы слабости цифровой инфраструктуры, выдвинуты практические предложения.</p> <p><b>Ключевые слова:</b> туризм, гостеприимство, международные стандарты, национальная система, менеджмент качества, сертификация, цифровая инфраструктура, качество услуг.</p>	<p style="text-align: center;"><b>F.Akhmedjanova, B.Ismatillaev</b></p> <p style="text-align: center;"><b>Problems of harmonizing international standards in the field of tourism and hospitality with the national system</b></p> <p><b>Abstract:</b> The article analyzes the process of harmonizing international standards in the field of tourism and hospitality with the national system in Uzbekistan. Their role in improving the quality of services, the need for regulatory and legal adaptation, employee qualifications, costs of small businesses, and the weakness of digital infrastructure were considered, and practical proposals were put forward.</p> <p><b>Keywords:</b> tourism, hospitality, international standards, national system, quality management, certification, digital infrastructure, service quality.</p>
---	---

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят  
бўлимида нашрга тайёрланди.

10.12.2025 йилда теришга берилди. 16.12.2025 йилда босишга рухсат этилди.  
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84<sub>1/8</sub>. “Times” гарнитураси. Офсет  
босма усули. Шартли босма табоғи 14,6. Ҳисоб-нашриёт  
табоғи 13,75. Адади 100 нусха. Буюртма № 0143А/25

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг  
матбаа бўлимида чоп этилди.  
Лицензия № 025316.  
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2025.